

**Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida
faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash
orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish
uchun chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan test topshiriqlari
spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o'quv me'yoriy hujjatlarga muvofiq qo'shimcha, o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

1. Test topshiriqlarining qo'llanishi

Spetsifikatsiya Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o'tkazish uchun o'qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo'ljallangan.

2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar:

– Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;

– Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim uchun chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalar;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 2-avgustdagi VM-425-son qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

3. Test sinovi topshiriqlarining mazmuni va tuzilishi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi.

Test topshiriqlari Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish uchun chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab berishga yo'naltiriladi. Ular o'qituvchilarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirganlik darajasini sinovdan o'tkazadi.

4. Test topshiriqlari tuzilishi.

Test topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo'lishi mumkin:

Y1 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test;

Y2 – to'rttadan ko'p javob variantli, bir nechta to'g'ri javobli yopiq test;

Y3 – to‘rtta savolga to‘rtta to‘g‘ri javobni mos qo‘yadigan yopiq test;

Y4 – har biri “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb belgilanadigan to‘rtta savoldan iborat yopiq test.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga asoslanib tuziladi. Test varianti, asosan, (Y1) to‘rtta javob variantli, bitta to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlaridan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, test topshiriqlari varianti turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasida tuzilgan test topshiriqlaridan tashkil topadi.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan barcha test topshiriqlari variantlarida qiyinlik darajasi bir xilda saqlanib, quyidagicha taqsimlanadi:

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi	Topshiriqlar soni	Topshiriqlar ulushi (%)
Oson	10	25
O‘rta	20	50
Yuqori	10	25
Jami:	40	100

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan shakllantiriladigan variant, 10 ta oson, 20 ta o‘rta va 10 ta yuqori qiyinlik darajasidagi jami 40 ta test topshirig‘idan iborat bo‘ladi.

Test topshiriqlari variantlarining ekvivalentligi quyidagicha ta’minlanadi:

- har bir variant maxsus kompyuter dasturi asosida test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga va ushbu spetsifikatsiyaga muvofiq shakllantiriladi.

- taqdim etiladigan barcha variantlardagi test topshiriqlari qiyinlik darajasining bir xilligi ta’minladi;

- turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasidagi barcha test topshiriqlarini tuzishda darsliklardagi qo‘shimcha ma’lumotlar, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik faniga oyid tayanch iboralar, atamalar, topshiriqlar, rasmlardagi ma’lumotlardan foydalaniladi.

.

5. Test topshiriqlarining mazmun, ko‘nikma va malakalar bo‘yicha taqsimlanishi.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimotida aks etgan bo‘limlarga oid mazmunni hamda 7 ta paragraf, 7 ta punktni o‘z ichiga oladi.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimoti:

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik

Paragraf	Punkt	Mavzu	Qiyinlik darajasi		
			oson	o'rta	yuqori
Harbiy-vatanparvarlik va harbiy san’at tarixi o‘quv bo‘limi					
1	1	Harbiy san’at tarixi. Dunyo miqiyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar. Buyuk sarkardalarning jangavor mahorati. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy va milliy qadriyatlar. Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalari. Jangovar an’analar. Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonlik jangchilarining ko‘rsatgan qahramonliklari. Vatanimiz mustaqilligi uchun jon fido qilgan Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari. Harbiy-vatanparvarlik va harbiy san’at tarixi o‘quv bo‘limi mashg‘ulotlarini tashkil etish. ChQBTni tashkil etish bo‘yicha dastur talablari. Baholash mezonlari.			
Harbiy xizmat asoslari o‘quv bo‘limi					
2	1	Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish. Bosh shtab. Harbiy okruglar. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. Harbiy majburiyat tushunchasi. Harbiy xizmat turlari. Harbiy xizmatga chaqirilishdan ozod etish. Harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni. Mudofaa tushunchasi. Qurolli Kuchlarning tashkil etilishi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomi. Harbiy xizmatchilar orasidagi Nizom munosabatlarini buzganlik uchun javobgarlik. Harbiy xizmat asoslari o‘quv bo‘limining mashg‘ulotlarini o‘qitish metodikasi.			
Otish tayyorgarligi o‘quv bo‘limi					
3	1	O‘qotar qurollarning vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili va jangovar xususiyatlari. Jangovar patronlar. Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar bilan ishlash jarayonida xavfsizlik choralari. Quroldan otish asoslari va qoidalari. Mashg‘ulot o‘tkazishdagi xavfsizlik choralari. O‘qdonni patron bilan to‘ldirish. Tayanchni tayyorlash. Tayanchdan yotib otishga tayyorlanish. Otishni amalga oshirish. Otishni to‘xtatish. Qurolni o‘qsizlantirish. Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlarini bajarish shartlarini o‘rganish. Otish tayyorgarligi o‘quv bo‘limining ta’limiy vazifalari, o‘qitish metodikasi.			

Amaliy jismoniy tayyorgarlik o'quv bo'limi					
4	1	Yagona to'siqlar yo'lagi bilan tanishish. Alohida to'siqlardan o'tish usullari va ularni yengib o'tishni mashq qilish. To'siqlar yo'lagini yengib o'tish mashqini bajarish. Umumiy nazorat mashqlarini bajarish. O'quv bo'limi mashg'ulotlarini tashkil etish.			
Harbiy ish asoslari o'quv bo'limi					
5	1	Umumqo'shin jangi asoslari. Jang haqida tushuncha. Zamonaviy umumqo'shin jangining tavsifi va maqsadi. Zamonaviy umumqo'shin jangining asosiy turlari. Askarning jangdagi majburiyatlari va ekipirovkasi. Jangovar guruhning tarkibi, qurollanishi va jangovar imkoniyatlari. Jangovar guruhning jangovar tartibi va harakatlanish taktikasi. Harbiy ish asoslari o'quv bo'limi mashg'ulotlarini o'qitish metodikasi.			
Fuqaro muhofazasi o'quv bo'limi					
6	1	O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lishi ehtimoli bo'lgan texnogen va tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar. O'zbekiston Respublikasi hududida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari. Zamonaviy ommaviy qirg'in qurollari va ulardan aholini himoya qilish. Shaxsiy (individual) himoya vositalari, vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish tartibi. Nafas olish organlarini himoya qiluvchi individual vositalar. Terini himoya qilish vositalari. Fuqaro muhofazasi himoya inshootlari. Sanitariya ishlovi. Kiyim-bosh va buyumlarni zararsizlantirish. Fuqaro muhofazasi o'quv bo'limiga taalluqli tabel buyumlari.			
Tibbiy bilim asoslari o'quv bo'limi					
7	1	Shikastlanganda, baxtsiz hodisa sodir bo'lganda va jarohatlanganda (yaralanganda) birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Jarohat to'g'risida tushuncha, jarohatlarning turlari. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam. Tibbiy bilim asoslari o'quv bo'limiga taalluqli tabel buyumlari.			
		jami	10	20	10

6. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga):
- 40 ta test topshirig'i uchun 80 daqiqa.

7. Test topshiruvchilar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi qonuni.
4. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv fani dasturi. 2021.
5. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv fani darsligi. 10-sinf.

- 2017.
6. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv fani darsligi. 11-sinf. 2017.
 7. Chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil etish va uning metodikasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010.

Internet saytlar:

1. lex.uz
2. www.natlib.uz

****Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi bilan kelishilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-son yig'ilishi qarori bilan ma'qullangan.***